

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11063657>

RAQAMLI IQTISODIYOT INNOVATSION BOSHQARUV SIFATIDA

Nozimova Irodaxon Sadikjanovna

Farg‘ona viloyati Quvasoy sanoat kolleji o‘qituvchisi

Baxronova Feruza Parmanovna - o‘qituvchi, Farg‘ona viloyati Quvasoy tumani

***Annotatsiya:** Raqamli iqtisodiyot tushunchasi keyingi yillarda rivojlanib borib, unga bo‘lgan qiziqish jamiyatda va iqtisodiyotda yuz bergan jiddiy o‘zgarishlar tufayli sezilarli darajada oshdi va u inson hayotida ko‘plab ijobiy imkoniyatlarni yuzaga keltiradi. Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotni innovatsion boshqaruv sifatida ko‘rib chiqiladi.*

***Kalit so‘zlar:** raqamli texnologiyalar, iqtisodiyot, imkoniyatlar, rivojlanish, harakat, faoliyat.*

Elektron hukumatga tegishli elementlarni joriy hayotga tatbiq etish va raqamli iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash zamonaviy O‘zbekistonning yaqin istiqboldagi taraqqiyot rejasidan mustahkam o‘rin olgan bo‘lib, bu birinchi navbatda, elektron hujjat almashuv xizmati ulushini yanada oshirish va davlat xizmatlarining tegishli qismini Davlat xizmatlari markazlari orqali bosqichma-bosqich ravishda elektron shaklga o‘tkazish vazifalariga tegishli bo‘lib hisoblanadi. *Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, „Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi“.*

Raqamli iqtisodiyot — bu iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni raqamli texnologiyalar yordamida amalga oshirish tizimi bo‘lib, u internet iqtisodiyoti, yangi iqtisodiyot yoki web-iqtisodiyot degan terminlar bilan ham ifodalanadi. Ushbu termini 1995 yilda amerikalik dasturchi Nikolas Negroponte amaliyotga kiritgan bo‘lib, hozirgi vaqtda bu tushunchani butun dunyodagi siyosatchilar, iqtisodchilar, jurnalistlar, tadbirkorlar — ya’ni barcha qo‘llayotgan tushunchaga aylandi. 2016-yilda Butunjahon banki dunyodagi raqamli iqtisodiyot haqida, uning o‘sha davrdagi ahvoli haqida birinchi marta ma’ruza e’lon qildi va bu “Raqamli dividendlar” deb nomlangan edi. Masalan, xaridor o‘ziga kerakli biror buyum, masalan kiyim sotib olmoqchi bo‘lsa, uni bozorga borib, kiyimni ko‘rib tanlasa va naqd pulga sotib olsa, bu an’anaviy iqtisod

bo‘lib hisoblanadi. Agar xaridor telegram ijtimoiy tarmog‘idagi biron savdo boti orqali o‘ziga ma‘qul tovarni tanlab, tovar egasiga pulni elektron to‘lov tizimi orqali to‘lasa va tovarni yetkazib berish xizmati orqali qabul qilib olsa, bu raqamli iqtisodiyotga misol bo‘ladi. Bu keltirilgan misol hozirgi zamonda eng keng tarqalgan sodda maishiy misol bo‘lib, aslida hammamiz allaqachon raqamli iqtisodiyotdan faol foydalanamiz va uning qulayliklaridan foydalanamiz. Raqamli iqtisodiyotga bo‘lgan qiziqish jamiyat va iqtisodiyotda ro‘y bergan jiddiy o‘zgarishlar tufayli sezilarli darajada o‘sdi. Zamonaviy texnologiyalar va platformalar mijozlar, hamkorlar va davlat tashkilotlari bilan shaxsiy muloqotni minimallashtirish hisobiga korxonalar va jismoniy shaxslarga xarajatlarni qisqartirishga yordam berdi, shuningdek, o‘zaro muloqotni yanada tez va oson yo‘lga qo‘yishga imkoniyat yaratdi. Natijada tarmoq resurslariga asoslangan, raqamli yoki elektron iqtisodiyot paydo bo‘ldi.

«Raqamlashtirish» so‘zi yangi atama bo‘lib, innovatsion boshqaruv va ish yuritish jarayoniga axborot texnologiyalari yechimlarining jalb etilishini, buning natijasi sifatida esa internet buyumlardan tortib, elektron hukumatgacha bo‘lgan barcha tizimlarda axborot texnologiyalarini qo‘llashni ko‘zda tutadi. Rivojlanayotgan zamonda butun dunyo bo‘ylab yangi xizmatlar va biznes modellarni yaratish uchun axborot texnologiyalari instrumentlardan foydalanadigan kompaniyalar aksariyat sohalarda yetakchi bo‘lgan kompaniyalarga kuchli raqobat tug‘dirmoqda.

Prognozlarga ko‘ra, yaqin yillarda makroiqtisodiyot «lean production», additiv, nano va biotexnologiya mezonlariga tayanadigan ishlab chiqaruvchilarga qattiq bog‘liq bo‘lishi kutilmoqda. Shu munosabat bilan oqilona boshqaruv uchun zarur hisoblangan axborot ko‘lami ham ortib boradi, ishlab chiqarish va fuqarolar muloqoti, biznes va davlat organlarini boshqarish tuzilmasi esa jiddiy o‘zgarishlarni boshdan kechiradi.

Quyidagilar ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyot yo‘liga bosqichma-bosqich chiqish uchun asosiy shart va omillar bo‘lib hisoblanadi:

- axborotlashtirish va davlat boshqaruvi organlari hamda munitsipal xizmatlarni integratsiyalash hisobiga elektron hukumat va raqamli shahar konsepsiyalarini tatbiq etish;
- yangi texnologik avloddagi mahsulotlarni yalpi ishlab chiqarish (pilotsiz avtomobillar va boshqalar singari);
- o‘ziga xos bezak va qurilish materiallari yordamida «aqlli» va ekologik uylarni barpo etishga oid g‘oyalarni amalga oshirish;
- outsorsing, o‘zini band etish va boshqalar orqali bandlikning muqobil shakllarini keng targ‘ib qilish;

- muayyan vazifalarni bajarish uchun ishchi-frilanserlarni izlashga xizmat qiladigan professional tarmoqlarni yaratish.

Yuqoridagilar barchasi biznesga ishlab chiqarish va boshqaruvda tovar va elektron xizmatlar integratsiyalanadigan zamonaviy platformalar yordamida xarajatlarni qisqartirishga imkoniyat beradi va bu birinchi galda xizmatlar buyurtmasi integratsiyasi, resurslardan birgalikda foydalanish, kontragentlarni tanlash, elektron savdoni yuritish, to'lovlar va boshqalarga tegishli bo'lib hisoblanadi. So'nggi yillarda iqtisodiyotning raqamli sektorini rivojlantirish borasida davlat tomonidan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirish maqsadida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan bir qator normativ-huquqiy hujjatlari imzolandi va raqamli iqtisodiyotni keng joriy etish, uni qo'llab-quvvatlash mamlakatimizning istiqboldagi taraqqiyot rejasidan muhim o'rin egallaganligi tufayli keng ko'lamli chora-tadbirlar belgilandi, mazkur vazifalar ijrosi sifatida mamlakatimizda yangi elektron hujjat aylanishi tizimlari joriy etilmoqda, elektron to'lovlar rivojlantirilmoqda va elektron tijorat sohasidagi normativ-huquqiy baza takomillashtirilmoqda, elektron infratuzilma va tijorat shakllantirilmoqda, iqtisodiyotning barcha jabhalarida raqamli transformatsiyaga o'tilishi qadamma- qadam amalga oshirilmoqda.

Raqamli transformatsiya realizatsiyasi bo'yicha so'nggi yillarda amalga oshirilgan ishlar qatorida aholi va tadbirkorlik subyektlarining davlat organlari bilan kontaktsiz aloqa shakllarini yanada rivojlantirish maqsadida Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalining yangi versiyasi, Bosh vazirning tadbirkorlar murojaatlarini ko'rib chiqish virtual qabulxonasi "business.gov.uz" portali ishga tushirildi.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha eng istiqbolli va strategik muhim loyihalarni, shuningdek blokcheyn texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish sohasida chora-tadbirlarni amalga oshirishga karatilgan "Raqamli ishonch" jamg'armasi tashkil etildi. Albatta, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi, zamonaviy texnologiyalarning hayotimizga tadbiq etilishi har bir inson hayotida ko'plab ijobiy imkoniyatlar berishi mumkin. Raqamli texnologiyalar rivojlanishi ortidan inson, unga kerakli xizmatdan tezroq foydalanishi, internet orqali o'ziga kerakli mahsulotlarni arzon sotib olish bilan ko'plab pul mablag'larini tejashi mumkin. Masalan biron bir kitobning elektron ko'rinishda sotib olish shu kitobni chop etilgan ko'rinishini sotib olishga nisbatan ancha arzonga tushishi aniq yoki bo'lmasa oddiy iste'molchi o'zi ham tadbirkor bo'lishi, uyidan chiqmagan holda onlayn savdo-sotiq bilan shug'ullanishi mumkin.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishining qo'shimcha afzalliklari quyidagilar:

- ishlab chiqarishda mehnat samadorligini oshishi;
- kompaniyalarning raqobatbardoshligini o'sishi;

- ishlab chiqarishdagi harajatlarning kamayishi;
- yangi ish o‘rinlari yaratilinishi;
- yangi zamonaviy kasblar paydo bo‘lishi;
- kambag‘allikni yengish va ijtimoiy tengsizlikni yuqolishi.

Bular raqamli iqtisodiyotning afzalliklari bo‘lib, uning rivojlanishi bizning kundalik hayotimizga o‘zining ijobiy ta‘sirini beradi, oddiy foydalanuvchiga ko‘plab qo‘shimcha imkoniyatlar beradi va qolaversa, bozorni o‘sishi va rivojlanishini ta‘minlab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Seitnazarov K. K. **TEXNOLOGIYA PROVEDENIYA VICHISLITELNIX EKSPERIMENTOV PO N DM KEGEYLIYSKOGO VPV NA GIS-OSNOVE** //Scienceweb akademik maqolalar to‘plami. – 2019 yil.
2. Seitnazarov K. K. va boshqalar. **O ‘QUVCHILARDA O ‘QUV–BILUV MOTIVLARINI SHAKLLANTIRISHDA AXBOROT–KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.** – 2022 yil.
3. Seitnazarov K. K., Turemuratova B. K. **SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYANI MASOFAVIY TA’LIM TIZIMIDA QO‘LLANISH** // Ta’lim yangiliklari: XXI asr tadqiqotlari. - 2022. - 1-jild. - Yo‘q. 1. - S. 176-185.
4. Ismoilova M.N. **Possibilities of using Mobile Technologies in the Educational Process**// International Journal on Integrated Education. Volume 6, Issue 10. Oct -2023.